

**INSON SOG'LIGIGA QARSHI QARATILGAN JINOYATLARDA KUCHLI TA'SIR
QILUVCHI YOKI ZAHARLI MODDALARNING AYRIM JIHATLARI.**

Xujamuratov Ikrom Axmadovich

Uchtepa tumani IIO FMB JKB katta tezkor vakili podpolkovnik

Annotatsiya: Maqolada kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish jinoyatining kriminalistik tavsiflari, og'ir oqibatlarini, bugungi kunda mazkur jinoyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslar va ularning mohiyati hamda jinoyatning oldini olishga qaratilgan fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Zaharli moddalar, inson salomatligi, kvalifikatsiya, jinoyat, noqonuniy, muomala, qonunga xilof, aralashma, farmakologik, tibbiy, aktiv moddalar.

Islom dinida ham har qanday insonning hayoti o'ta qadrli bo'lganidan bolalarga nisbatan qotillikni amalga oshirish eng og'ir jinoyat deb baholanadi. O'z rohatini ko'zlab ayollarni joni bor homilasini oldirib tashlashga majburlash, xuddi johiliyat davrida go'dak qizlarni tiriklayin ko'mib tashlash jinoyatining kichik bir ko'rinishi kabidir. Zero, Alloh taolo: «(Ey insonlar), bolalaringizni yo'qchilikdan qo'rqib o'ldirmangizlar, ularga ham, sizlarga ham Biz o'zimiz rizq berurmiz. Ularni o'ldirmoq, shak-shubhasiz, katta xatodir» — deb Isro surasidagi oyat bilan bunday qotillikni ta'qiqlaydi.

Inson hayotiga suiqasd qilish ham eng og'ir gunoh ekanligi islom manbalarida ta'kidlanadi. Jumladan, Alloh taolo «Moida» surasida: «Albatta, kim odam o'ldirmagan va yer yuzida fasod qilmagan bir jonni o'ldirsa, xuddi barcha odamlarni o'ldirgandekdir», deydi.

Islom dini manbalarida keltirilishicha, bir insonning hayotiga tajovuz qilib, uni o'ldirishga jur'at etgan odam butun insoniyatni o'ldirgandek bo'ladi. Chunki, u insonlik huquqini poymol etadi.

Darhaqiqat, insonning hayoti va sog'lig'i shaxsning bebaho boyligi hisoblanadi va uning bu boyliklardan mahrum etilishi yoki ularga shikast yetkazilishi shaxs uchun fojia dir.

Davlatlar paydo bo'lishida qabul qilingan qonunlarda ham inson hayoti va uning sog'liga eng oliy o'rinlarda hisoblanib, inson sog'ligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar og'ir turdagi jinoyatlar hisoblanadi.

Inson ssog'ligi o'zi tomonidan va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yoshi ulug'lar aytganidek, sog'liq bo'lsa barchasi topiladi. Lekin bor sog'liqqa inson o'zi yoki boshqalar tomonidan jabr yetkazilishi bu jinoyat hisoblanadi.

Inson hayoti va sog'ligiga turli usullarda shikast yetkazilishi mumkin, ya'ni. Turli tig'li narsalar bilan shikast yetkazilishiyohud giyohvandlik vositalarini qabul qilishi bilan sodir etilishi mumkin.

Lekin bugungi kunda insonlar turli xil dori vositalarini shunchaki suntiy kayfiyat yaratish uchun ham qabul qilishni yo'lga qo'yishgan.

Ijtimoiy tarmoqlarda har kun taqiqlangan kuchli dori vositalarining oldi sotdisi bo'yicha aniqlangan holatlar bo'yicha xabarlariga duch kelamiz.

Taqiqlangan dorilar tarkibida esa inson ruhiyatiga kehli ta'sir qiluvchi elementlar joylashgan bo'lib, uni ist'emol qilganlar o'z sog'lig'iga bilib bilmay sekin astalik bilan jabr qilishni amalga oshiradilar.

To'rtta nom – zaleplon, pregabalin, tropikamid va siklopentolat – ularning oboroti 2019 yil 1 dekabrda cheklanadi. Ular faqat giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni saqlash va

INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

sotish faoliyati uchun litsenziyaga ega bo'lgan dorixonalar va ijtimoiy dorixonalar orqali sotiladi

Respublikamizda kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash ham ham muomalaga kiritish ham jinoyat qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Kuchli ta'sir etuvchi moddalar – ko'p miqdorda iste'mol qilganda yoki ularni tibbiy foydalanish qoidalariga rioya qilmasdan iste'mol qilganda inson hayoti va sog'ligiga xavfli ta'sir ko'rsatadigan moddalar. Yuridik nuqtai nazardan ular Giyohvandlik vositasi, ularning analoglari yoki psixotrop modda hisoblanmaydi va O'zbekiston Respublikasida nazorat qilinishi lozim bo'lgan Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxatiga kiritilmagan.

Odam organizmiga toksik (zaharlovchi) ta'sir o'tkazadigan moddalar zaharli moddalar hisoblanadi. Ushbu moddalarni kam miqdorda iste'mol qilganda ham inson og'ir zaharlanishi yoki o'limi kelib chiqishi mumkin.

Jinoiy huquqiy nuqtai-nazardan tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini bunga ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lmagan dorixonalarda realizatsiya qilish kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish sifatida baholanishi va JK 2511-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini berish uchun mo'ljallangan retseptni ularni shaxsan iste'mol qilish maqsadida qalbakilashtirishi JK 228-moddasi bilan, retsept bunday vositalarni o'tkazish maqsadida qalbakilashtirish JK 228-moddasi bilan, retsept bunday vositalarni ytkazish maqsadida qalbakilashtirilganda esa, JK 228 va 2511-moddalari majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni ishlab chiqarish, olish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoxud jo'natish qoidalarini buzish (JK 2511-moddasining to'rtinchi qismi) odamning uzoq muddat davomida kasallanishi, atrof-muhitning zaharli moddalar bilan ifloslanishi va h.k.larda ifodalanishi mumkin. Ehtiyotsizlik orqasida badanga shikast yetkazilishi yoxud odam o'lishi JK 2511-moddasining to'rtinchi qismi tarkibi bilan qamrab olinmaydi va JK Maxsus qismining inson hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari bilan kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.

Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrdagi "Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralarini kuchaytirish to'g'risida"gi qarori esa bunday salbiy holatlarga barham berishda, ya'ni dori vositalarining noqonuniy aylanishi va ularning suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar aylanishini tartibga solishni takomillashtirish, shuningdek, aholining sog'lig'ini saqlashni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarga chek qo'yish maqsadida huquqni muhofa qilish organlari tomonidan "Qoradori" keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlar davomida respublikamiz hududalarida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar bilan bir qatorda, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi yoxud zaharli moddalarni o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, qayta ishlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish bilan bog'liq jinoyatlar ham fosh etilmoqda.

Mazkur jinoyatning oldini olish maqsadida yoshlar o'rtasida keng qamrovli huquqiy ongni oshirishga qaratilgan huquqiy targ'ibotlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.G.Ermakov. Ugolovno-pravovaya xarakteristika nezakonnogo oborota sil'nodeystvuyushix i yadovityx veshchestv: diss. ... kand. yurid. nauk. - Omsk, 2014. – s. 160-161.
2. I.V.Lazenkova. Ugolovnaya otvetstvennost' za nezakonnuyu oborot sil'nodeystvuyushix ili yadovityx veshchestv v selyax sbyta: diss. ... kand. yurid. nauk.– M.:, 2015. – s. 12.
3. S.U.Toshniyozov. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni belgilovchi qonunchilikning rivojlanishi tahlili (“Jamiyat va innovatsiyalar” ilmiy jurlani, DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss6/S-pp95-104>, 2022. 6-son – 95-104-v.
4. <https://uzpharmagency.uz/uz/news/kuchli-tasir-qiluvchi-dori-vositalarini>
5. “Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining №33-sonli qarori. 2021 yil 27 noyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida”gi №818-sonli qarori. 2019 yil 28 sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. 3-jild.
8. S.I. Svetkov I Problemy profilaktiki i rassledovaniya prestupleniy na sovremennom etape: mejvuz. nauch. sb. - Ufa: Izd-vo Bashk. un-ta, 1990. - S.23; OBNINSKIY, S.S. Operativno-rozysknaya informatsiya: monografiya. / S.S. Ovchinskiy. - M.: Infra-M, 2000. - S. 17.
9. Kiselyov, V.I. Teoreticheskie osnovy informatsionnogo obespecheniya protsessa raskrytiya prestupleniy: monografiya. / V.I. Kiselyov. - Xabarovsk: Dal'nevostochnyy OI MVD Rossii. 2002. - S. 48.